



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

www.xs.uz

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 25-iyun, № 128 (9299)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



ANDIJON SHAHRINING “TURKIY DUNYONING MADANIYAT POYTaxTI” DEB E’LON QILINISHI DOIRASIDA O’TKAZILAYOTGAN XALQARO TADBIRLAR ISHTIROKCHILARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Avvalo, siz, azizlarni Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan, ko'hna va betakror Andijon shahrining 2026-yilda “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e'lon qilinishi doirasida o'tkazilayotgan tadbirlarning ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Bugungi marosimda ishtirok etayotgan xalqaro tashkilotlar rahbarlari, xorijiy davlatlarning elchilari, turkiy dunyoning atoqli madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari qizg'in qutlab, barchangizga yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Fursatdan foydalanib, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY rahbariyati va Tashkilotga a'zo davlatlarga Andijon shahrini “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e'lon qilganliklari uchun chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hech shubhasiz, Andijon shahrining bunday yuksak sharafiga munosib ko'rilganini O'zbekistonning boy tarixi, madaniy-ma'naviy merosi, yurtimizning turkiy madaniyat rivojiga

qo'shgan bebaho hissassi, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning xalqaro miqyosdagi yana bir e'tirofi sifatida qabul qilamiz.

Aziz do'stlar!

Vatanimizning sharqiy darvozasi bo'lmish Andijon asrlar davomida madaniyat, adabiyot, san'at va hunarmandlik sohalaridagi markazlardan biri bo'lib kelgan. Bu tabarruk zamindan ulug' sarkarda va davlat arboblari, benazir allomalar, shoir va adiblar, mahoratli san'atkorlar yetishib chiqqanini butun turkiy olam doimo minnatdorlik bilan e'tirof etadi.

Bu haqda gapirganda, ushbu dilbar diyorning faxru iftixori bo'lgan Bobur Mirzoning ulkan ilmiy va adabiy merosi, harbiy san'ati, mumtoz shoirimiz Abdulhamid Cho'lponning ozodlik va erkinlik qadri yuksak pardalarda tarannum etilgan o'lmas asarlarining o'zi ko'p narsadan dalolat berishini ta'kidlash zarur. Milliy raqs san'atimizning yorqin namunasi bo'lmish “Andijon polkasi”, odamlarimizning beg'ubor qalbi va zakovatini o'zida mujassam etgan askiya san'ati nafaqat bizning, balki butun

san'atsevar xalqlarning umumiy madaniy mulkiga aylangan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bu kabi bebaho qadriyat va san'at durdonalarini asrab-avaylash va boyitish, ulardan yosh avlodimiz va jahon madaniy jamoatchiligini keng bahramand etish borasida TURKSOY bilan yaqin hamkorlikni yuksak qadrlaymiz. Bu borada eng sara adabiy asarlarni o'z ichiga olgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” to'plami nashr etilib, o'quvchilar qo'lga yetib borgan, mamlakatlaramizda birgalikda ko'plab ilmiy anjuman va konferensiyalar, turli madaniy tadbir va taqdimotlar o'tkazilayotgani, shu yilning aprel oyida Islom sivilizatsiyasi markazida TURKSOY ofisi ochilganini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbekistonlik san'at va madaniyat namoyandalari bugungi kunda xalqaro sahnalarda, xususan, TURKSOY tomonidan o'tkazilayotgan nufuzli anjumanlar, festival va tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmog'da. Xususan, joriy yilning fevral oyida bolalar raqs va sozandalik jamoalarimiz

xalqaro festivalda Gran-prini qo'lga kiritgani barchamizni mamnun qildi.

Bularning barchasi xalqlarimizning teran ildizga ega qardoshlik rishtalari bugun ham tobora mustahkamlanib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

“Andijon – Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” loyihasi doirasida bir yil davomida mamlakatimiz va qardosh yurtlarda o'tkaziladigan festival va ilmiy anjumanlar, badiiy kecha va ijodiy uchrashuvlar madaniy hayotimizda chuqur iz qoldiradigan, do'stlik va hamijhatlik rishtalarini yanada mustahkamlaydigan, yosh avlod uchun keng imkoniyatlar ochadigan unutilmas voqea bo'lib qoladi deb ishonaman.

Sizlarni yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, kelgusi faoliyatingizga ulkan zafarlar tilayman.

O'zbekiston durdonasi, oltin vodiylar gavhari – so'lim va fayzli Andijon shahriga xush kelibsiz, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON PREZIDENTLARINING TELEFON ORQALI MULOQOTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 24-iyun kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda O'zbekiston – Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash muhim ekanini ta'kidladilar.

Amaliy hamkorlik, eng avvalo, savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, ekologiya, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida yuqori sur'at bilan rivojlanayotgani mamnuhiyat bilan qayd etildi.

Barcha darajadagi faol almashinuvlar alohida e'tirof qilindi. Yetakchilar ikki mamlakat Prezidentlari Administratsiyalari o'rtasida erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida amalga oshirish hamda sheriklik kun tartibini yangi loyiha va tashabbuslar bilan boyitishga xizmat qilayotgan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilganini olqishladilar.

O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari mintaqaviy siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashib, bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar.

O'zA.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

ADVOKATLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi tomonidan Advokatlar palatasi hamkorligida advokatlar bilan ochiq muloqot tashkil etildi.

Unda deputatlar, olimlar, Advokatlar palatasi mas'ullari, Adliya vazirligi, sud va tergov organlari vakillari hamda Yoshlar parlamenti a'zolari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda advokatura institutini takomillashtirish, uning huquqiy poydevorini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Advokatura to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar bu sohada tub islohotlarni boshlab berdi. Natijada yurtimizda advokatura fuqarolar va tashkilotlarga malakali yuridik yordam ko'rsata oladigan, ijtimoiy ahamiyatli – maxsus huquq layoqatiga ega institut sifatida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.



Dunyo nigohi

O'ZBEKISTON SAYYOHLARNI CHORLAMOQDA

“The New York Times” gazetasida mamlakatimiz turizm salohiyatiga bag'ishlangan maqola chop etildi



Amerika Qo'shma Shtatlarida chiqadigan mashhur “The New York Times” gazetasining butun jahonga mo'ljallab chop etiladigan sonida mamlakatimiz haqida “O'zbekiston bo'yab Ipak yo'lidagi sarguzashtlar” sarlavhali yirik reportaj berildi.

Unda muallif – jurnalist Geyb Kastro-Rut O'zbekistonga sayohati haqida hikoya qilar ekan, tagsarlavhaga chiqarilgan “O'zbekistonda nima sayyohlarni o'ziga rom etadi va nega Markaziy Osiyoning bu mamlakati tobora ko'proq dunyo yoshlari e'tiborini tortmoqda?” degan savolga javob izlaydi.

Reportaj Xivadan boshlanadi. Muallif bu shaharni tom ma'noda tarix jonlanadigan maskan sifatida ta'riflaydi. Bu yerda mozaikalar quyosh nurida tovlanadi, qadimiy qo'rg'on devorlarida yorqin matolar ko'zga tashlanadi, tandirdan xushbo'y somsalar uziladi.

Shaharning tor ko'chalaridan birida yuz bergan ajoyib voqea esa jurnalistda mamlakatimiz haqida tasavvurga ega bo'lish uchun asosiy kalit vazifasini o'taydi. Minoraga olib boradigan yo'lni topish maqsadida muallif mahalliy aholi vakillaridan biriga murojaat qiladi. U esa yo'lni tushuntirish o'rniga sayyohni uyiga taklif etadi, mehmon qilib, suhbatlashadi, kuzatib qo'yayotganda esa qo'lga xurmo tutqazadi. Muallifning e'tirof etishicha, bu insonning ismini aytmasa-da, aynan shunga o'xshash antiqa hodisalar uning O'zbekistondan olgan taassurotlarida muhim o'rinni egallaydi.



Munosabat

ISTIQBOLLI LOYIHALAR VA TASHABBUSLAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga bu galgi tashrifi davomida iqtisodiyot, sanoat, raqamlashtirish, turizm, madaniyat, sport, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy himoya va inson kapitali kabi sohalar bir butun tizim sifatida ko'rib chiqildi.



Xususan, Namanganda tashkil etilgan Zamonaviy vaziyatlar markazi davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha yangi bosqichni boshlab berayotgani diqqatga sazovor. “Mahalla axborot va xizmat markazi” loyihasi aholiga davlat xizmatlarini mahallaning o'zida, “yagona darcha” tamoyili asosida taqdim etmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan Namangan viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ham strategik

ahamiyatga ega. So'nggi yillarda sanoat hajmining qariyb o'n baravarga o'sib, 40 trln. so'mga yetgani hududdagi iqtisodiy faollik va tadbirkorlik muhiti sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatadi. Endi mashinasozlik, metallurgiya, yengil sanoat, xizmatlar sohasi va yangi iqtisodiyot yo'nalishlarini asosiy drayverlarga aylantirish bo'yicha berilgan topshiriqlar kelgusi yillarda yanada yuqori natijalarga zamin yaratadi.

Tashrif davomida aholi bandligi va kambag'allikni qisqartirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Yil yakuniga qadar 80 ming aholini doimiy ish bilan ta'minlash, 21 ming oilani kambag'allikdan chiqarish vazifasi qo'yilgani davlat siyosatining markazida inson manfaatlarini turganini yana bir bor tasdiqlaydi.



ISLOHOTLAR YANGI SIFAT BOSQICHIDA

Davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga bu galgi tashrifi hududning yaqin va uzoq istiqboldagi rivojlanish yo'lga yangi ruh, yangi sur'at bag'ishladi. Tashrif davomida raqamli boshqaruv, sanoat, investitsiya, eksport, qishloq xo'jaligi, aholi bandligini ta'minlash, ta'lim, infratuzilma hamda sog'liqni saqlash sohalari bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Bu esa davlat siyosatida natijadorlik, manzilli yondashuv va amaliy samaradorlik ustuvor ahamiyatga ega ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

Ayniqsa, Namanganda “Aqli” vaziyatlar markazi hamda “Mahalla axborot va xizmat markazi”ni tashkil etish tashabbusi davlat xizmatlarini aholiga yanada yaqinlashtirish, boshqaruvni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Mahallalarda 980 turdagi xizmatlarni “yagona darcha” tamoyili asosida ko'rsatish rejasi fuqarolar uchun vaqt va ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish bilan birga, davlat idoralari faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

14 ta “aql markazi”ni ishga tushirish orqali



hududlarni ilmiy yondashuv asosida rivojlantirish vazifasining qo'yilishi ham alohida ahamiyatga ega. Endilikda har bir tumaning iqtisodiy salohiyati, investitsiya imkoniyatlari, mehnat unumdorligi va qo'shimcha qiymat zanjirlari chuqur tahlil etilib, qarorlar ilmiy asosda qabul qilinadi. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish va hududlar raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini beradi.



Senat qo'mitasida

ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARI HIMOYASIDA MUHIM QADAM

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi majlisida “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida”gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Mazkur qonun bilan tovardagi nuqsonlarni uning tashqi ko'rinishi orqali aniqlash imkonini bo'lmagan hollarda tovar sifatini qo'shimcha tekshirishning huquqiy asoslari, tartibi va muddatlari belgilanmoqda. Xususan, tovarning sifatini qo'shimcha tekshirish zarur bo'lgan hollarda uni almashtirib berish muddati iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun etib belgilanyapti.

Shuningdek, iste'molchining tekshiruv jarayonida qatnashishi, uning o'tkazilish vaqti va joyi haqida oldindan xabardor qilinishini talab etishi hamda tovar sifatini o'z mablag'larini hisobidan qo'shimcha tekshirish huquqlari ham mustahkamlanmoqda.

Shundan so'ng Boshqaruv servis kompaniyalari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'rovi natijalari muhokama qilindi.

Senatorlar tomonidan ko'p kvartirali uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda aholiga sifatli kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xususida axborot eshitildi.



Senator va hayot

SAYYOR QABULLAR – MUAMMOLARNI O'RGANISHNING SAMARALI MEXANIZMI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zosi Zumrad Bekatova Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo va Taxiotosh tumanlarida sayyor qabullar va aholi bilan ochiq muloqotlar o'tkazdi.

Mahalliy Kengashlar deputatlari, hududiy rahbarlar hamda mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirokidagi uchrashuvlarda fuqarolarning murojaatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, mahalliy Kengashlar faoliyati, deputatlik nazorati samaradorligi va aholi bilan ishlash holati o'rganildi.

Senator hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, investitsiya loyihalari, ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan ham tanishdi. Avtomobil yo'llarini ta'mirlash, irrigatsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish borasidagi ishlar, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalari faoliyati o'rganildi.



ISTEʼMOLCHILAR HUQUQLARI HIMOYASIDA MUHIM QADAM

 Bugungi kunda respublikamizdagi koʻp kvartirali uylarga xizmat koʻrsatish tizimini takomillashtirish, sohaga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish va aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, koʻp kvartirali uylarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash, ichki muhandislik tarmoqlarini

taʼmirlash, lift xoʻjaligini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish hamda sohani raqamlashtirish boʻyicha qator amaliy choralar koʻrilgan.

Shuningdek, "Mening uyim" axborot billing tizimi, boshqaruv organlarining elektron reyestri hamda boshqa raqamli platformalarni joriy etish orqali sohada ochiqlik va shaffoflikni taʼminlashga qaratilgan ishlar amalga oshirilayotgani taʼkidlandi.

Muhokama chogʻida senatorlar aholini sifatlil kommunal xizmatlar bilan taʼminlash, boshqaruv tashkilotlari faoliyati samaradorligini koʻtarish, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan qator taklif va tavsiyalar bildirdi.

Muhokama yakunida qoʻmitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq soʻzi".

SAYYOR QABULLAR – MUAMMOLARNI OʻRGANISHNING SAMARALI MEXANIZMI

 Amudaryo tumanidagi davlat ahamiyatiga ega "A380" avtomobil yoʻli hamda Beshovul, Toshqal'a, Yuqori qishloq va Qilichboy mahallalarini tuman markazi bilan bogʻlovchi asosiy yoʻllarda olib borilayotgan taʼmirlash ishlari shular jumlasidandir.

Ayni chogʻda, mahalliy va xorijiy investorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar, jumladan, Taxiatoosh shahridagi "Linr wise" sunʼiy intellekt markazi, "Eski Keneges" kanalini rekonstruksiya qilish ishlari hamda "Surxon Taxiatoosh Textil" tikuv sexi faoliyati bilan tanishilib, xodimlarning taklif

va mulohazalari oʻrganildi.

Sayyor qabullar davomida ijtimoiy himoya, bandlik, uy-joy, tadbirkorlik, kommunal xizmatlar va huquqiy masalalarga oid murojaatlar tinglandi. Ayrim muammolar joyida hal etildi, qoʻshimcha oʻrganish talab qiladigan masalalar esa nazoratga olinib, tegishli tashkilotlarga aniq tavsiyalar berildi. Fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash hamda infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan vazifalar belgilab olindi.

"HAMDOʻSTLIK BOLALARI" FORUMI DOIRASIDA OʻZBEKISTON KUNI

Tojikiston Respublikasida oʻtkazilayotgan XI xalqaro madaniy-marifiy "Hamdoʻstlik bolalari" forumi doirasida Oʻzbekiston kuni keng nishonlandi.

Tadbir

Mazkur anʼanaviy tadbirda Oʻzbekiston, Armaniston, Belarus, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmanistondan 14 – 17 yoshdagi maktab oʻquvchilari va ularning ustozlari ishtirok etmoqda.

Tadbir qatnashchilariga Samarqand, Buxoro kabi qadimiy shaharlarimiz, Buyuk Ipak yoʻli merosi, milliy anʼanalarimiz va zamonaviy taraqqiyotimizni aks ettiruvchi videotaqdimot namoyish qilindi. Oʻzbekistonning madaniy va meʼmoriy boyliklari, xalqimizning koʻp asrlik tarixi

haqida keng maʼlumot berildi.

Oʻzbek milliy musiqasi, xalq ogʻzaki ijodi, mumtoz va estrada sanʼati namunalaridan iborat konsert dasturi forum ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, milliy raqslarimiz xalqimizning boy madaniy anʼanalarini yorqin namoyon etdi.

Oʻzbekistonlik maktab oʻquvchilarining faol ishtiroki mamlakatimizning ochiqlik siyosati, millatlararo toʻtovlik va madaniyatlararo muloqotni qoʻllab-quvvatlash borasidagi saʼy-harakatlarining amaliy ifodasi sifatida eʼtirof qilindi.

"Xalq soʻzi".

INSON MANFAATLARINI TAʼMINLASH YOʻLIDAGI SAʼY-HARAKATLAR

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari hududlarda boʻlib, aholi bilan faol muloqotlar olib bormoqda. Uchrashuvlar davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarning mazmun-mohiyati, davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan muhim tashabbuslar, qabul qilinayotgan qonunlarning ahamiyati saylovchilarga tushuntirilmoqda. Joylardagi mavjud muammolar oʻrganilyapti, ularni bartaraf etish choralari koʻrilib, qonunchilikka tegishli takliflar olinyapti.

Deputatlar – hududlarda

Mamlakat kelajagiga qoʻyilgan mustahkam poydevor

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Hilola Yusupova Namangan shahrida boʻlib, bir qator uchrashuvlar oʻtkazdi.

Xalq vakili dastlab Namangan shahridagi 3-texnikumda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Quvvati 720 oʻrinli boʻlgan mazkur texnikumda kelgusi oʻquv yili uchun 660 nafar yoshni qamrab olish rejalashtirilgani bu yerdan taʼlimga boʻlgan ehtiyoj yuqori ekanidan dalolat beradi.

Quvontiradigan jihatlardan biri – taʼlim jarayonining amaliyot bilan uygʻunlashtirilganidir. Dual taʼlim tizimi orqali oʻquvchilar nafaqat nazariy bilim, balki ishlab chiqarish jarayonida zarur boʻladigan amaliy koʻnikmalarni ham egallamoqda. Avtomobil servisi, zargarlik, oshpazlik, moda texnologiyasi, dasturlash, arxitektura dizayni, logistika, buxgalteriya hisobi va audit kabi zamonaviy yoʻnalishlar boʻyicha kadrlar tayyorlanayotgani bugungi mehnat bozori talablariga toʻla mos keladi.

Deputat taʼlim muassasasida hal etilishi lozim boʻlgan ayrim masalalar ham borligiga eʼtibor qaratdi. Shuningdek, oʻquvchilar sonini hisobga olgan holda keng va zamonaviy oshxona qurish, yoshlarning sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun sport zali barpo etish boʻyicha takliflar ilgari surildi.

Hilola YUSUPOVA, deputat:

– Kuni kecha Prezidentimizning Namangan viloyatiga tashrifi aholiga ruhiy quvvat, yangi marralar sari intilish va eʼtangi kunga mustahkam ishonch bagʻishladi. Davlatimiz rahbari tomonidan

hududlarni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, yoshlarga zamonaviy bilim va kasb-hunar berish, ularning bandligini taʼminlash borasida belgilab berilgan vazifalar har birimiz uchun dasturlamal boʻlib xizmat qilmoqda.

Oʻz saylov okrugidagi uchrashuvlar davomida ana shu islohotlarning amaliy natijalarini, odamlardagi koʻtarinki kayfiyatni koʻryapman. Bugun namanganliklarning toʻleli baland. Odamlar mamlakatimizda kechayotgan oʻzgarishlarni oʻz hayotida his qilmoqda. Ayniqsa, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, taʼlim va kasb-hunar sohasidagi yangilanishlar ularning kelajakka boʻlgan ishonchini mustahkamlamoqda.

Prezidentimiz tashrifi davomida belgilab berilgan vazifalar, xalqimiz kayfiyatidagi koʻtarinkilik va hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlar biz, deputatlardan yanada faol boʻlishni, odamlar dardi va orzulari bilan yashashni talab etadi.

Muloqotlar davomida mamlakatimizda taʼlim sohasiga qaratilayotgan eʼtiborning tub mohiyati yoshlarga bilim berish, ularni kasbli qilish va hayotda oʻz oʻrnini topishi uchun munosib sharoit yaratishga qaratilgani taʼkidlanib, Namangan yoshlari bu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshishi qayd etildi.

Daxldorlik va minnatdorlik hissi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Gulnora Abduraxmonova Bulqoboshi tumanidagi saylovchilar bilan navbatdagi uchrashuvlari samarali boʻlmoqda.



Deputatning eʼtiborini tumandagi "Neftchilar" mahalla fuqarolar yigʻinida yashovchi aholining murojaati tortdi. Unda mahalla hududidagi 8 ta ichki koʻchani asfaltlash zarurati bildirilgan edi.

Xalq vakili masalani joyiga chiqqan holda oʻrganib, mavjud holat haqiqatan ham koʻchalarni taʼmirlash zarurati koʻrsatishini taʼkidladi. Deputat tashabbusi bilan mahalla ichki koʻchalarni asfaltlash uchun "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida mablagʻ ajratilishiga erishildi.

Gulnora Abduraxmonova, deputat:

– Oʻrganishlarimiz davomida loyiha doirasida roʻyobga chiqarilgan ishlar bilan ham tanishdik. Amalga oshirilayotgan obodonlashtirish tadbirlari koʻchalar qiyofasini tubdan oʻzgartirmoqda. Eng muhimi, aholi olib borilayotgan islohotlardan mamnun. Oʻz navbatida, aholi roziligi va ishonchi biz uchun eng odil bahodir. Bu kabi natijalar saylovchilar murojaatlarini eshitish, ularni chuqur oʻrganish va amaliy yechim topish yoʻlidagi ishlarni yanada faol davom ettirishga undaydi.

Deputat bilan uchrashuvda mahalla faollari aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlar uchun minnatdorlik bildirdi.

Xalq vakili, shuningdek, mahalla faxriylari bilan ham uchrashib, ular bilan muloqotda boʻldi. Uchrashuvda nuroniyarning taklif va mulohazalari tinglanib, mahallada amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan fikr almashildi.

Taʼlim muassasasidagi sharoitlar qanday?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Oydin Abdullayeva Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internatida boʻlib, muassasa faoliyati, oʻquv jarayoni hamda mavjud shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Mazkur taʼlim muassasasi oʻzining boy tarixi va anʼanalariga ega boʻlib, mamlakatimizda



xoreografiya sanʼatini rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Bu yerda tahsil olayotgan oʻquvchi-yoshlar Mustaqillik, Navroʻz kabi umumxalq bayramlari hamda boshqa madaniy-marifiy tadbirlarda muntazam ishtirok etib, ularning yuqori saviyada oʻtkazilishiga munosib hissa qoʻshib kelmoqda.


Oʻrganishlar davomida taʼlim muassasasida yechim topilishi zarur boʻlgan bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, muassasa binosi umumiy yer sathidan quyida joylashgani sababli qor va yomgʻir suvlari hududda toʻplanib, binoning yertoʻla qismiga sizib qirmoqda. Bu holat yertoʻlaning texnik holatiga salbiy taʼsir koʻrsatib, binodan xavfsiz va samarali foydalanishda muayyan qiyinchiliklar tugʻdiryapti.

Muassasaning elektr tarmoqlari ham eskirgan. Natijada yuqori kучlanish davrida elektr taʼminotida uzilishlar kuzatilib, bu oʻquv jarayoni va muassasaning kundalik faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Maktab-internat xoreografiya sanʼatiga ixtisoslashtirilgani bois oʻquv dasturiga muvofiq, oʻquvchilar muntazam ravishda konsert dasturlari, sahna chiqishlari va repetitsiyalarda ishtirok etadi. Biroq muassasada konsert va repetitsiya kiyimlarining yetarli emasligi bunday tadbirlarni toʻlaqonli tashkil qilish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Oydin ABDULLAYEVA, deputat:

– Uchrashuv davomida muassasa rahbariyati, pedagoglar hamda masʼul xodimlar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni tingladik. Mavjud muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, taʼlim muassasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda oʻquvchilar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish masalalarini nazoratga oldik. Oʻylaymanki, tegishli mutasaddilar bilan birgalikda mavjud muammolarni bartaraf qilishga erishamiz.



Murojaatlar – doimiy eʼtiborda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Manzura Salimova Fargʻona shahridagi "Gulzor" mahalla fuqarolar yigʻinida aholi murojaatlarini oʻrganish maqsadida deputatlik qabuli oʻtkazdi.

Jarayonda fuqarolar tomonidan hudud infratuzilmasi, ekologik xavfsizlik, ichki yoʻllarni taʼmirlash, asfaltlash, qurigan daraxtlarni butash, bolalar oʻyingohi uchun zarur sharoit yaratish, shuningdek, nogironliligi boʻlgan fuqarolarni koʻllab-quvvatlash kabi bir qator masalalar koʻtarildi.

Xalq vakili har bir murojaatni mahalla faollari va masʼul tashkilotlar vakillari ishtirokida joyida oʻrgandi. Muammolarning yechimi boʻyicha tegishli mutasaddilar bilan bogʻlanib, amaliy choralar belgilab olindi. Ayniqsa, aholi uchun qulay va xavfsiz yashash muhitini shakllantirish, mahalla infratuzilmasini yaxshilash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga zarur koʻmak koʻrsatish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Qabul natijasida Gulzor mahallasida infratuzilma bilan bogʻliq muammolarni bartaraf etish boʻyicha amaliy ishlar boshlandi.

Belgilangan vazifalar ijrosi deputatning doimiy nazoratiga olindi.

Manzura SALIMOVA, deputat:

– Taʼkidlash joizki, aholi murojaatlarini bevosita joyiga chiqqan holda oʻrganish, mavjud muammolarni masʼullar bilan hamkorlikda hal etish partiyamiz deputatlik korpusi faoliyatining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Bu kabi amaliy muloqotlar fuqarolarning muammolariga oʻz vaqtida yechim topish, mahallalarda yashash sharoitini yaxshilash hamda xalq vakillariga boʻlgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi uchrashuvlari davom etmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.





ADVOKATLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR

Yurtimizda advokatura institutini rivojlantirish, ularning mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, – deydi qo'mita raisi Jahongir Shirinov. – Xususan, advokatlarining huquqiy maqomi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam uchun advokatura faoliyat ko'rsatishi, uning ishi qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanishi belgilangan. Shuningdek, advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaslighi, advokatning sha'ni, qadr-qimmatiga va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'lishi mustahkamlangan.

Tadbirida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston–2030" strategiyasida ham advokatura institutini o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish hamda uning davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini ta'minlash, advokatlar malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobilik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish belgilangan. Shuningdek, advokatlar sonini kamida 2000 nafarga

ko'paytirish, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha advokatlar hamda sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o'rtasida elek-tron hujjatlar almashinuvi darajasini kamida 50 foizga yetkazish kabi muhim vazifalar aks etgan.

Muloqotda mamlakatimizda advokatura institutini takomillashtirish, uning huquqiy poydevorini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi. Advokatlarining ish jarayonida uchrayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga oid amaliy taklif va tavsiyalar atroflicha muhokama qilindi.

Tadbirida so'z olgan advokatlar deputatlar bilan bo'lib o'tgan muloqot nafaqat muammolarni ochiq muhokama qilish, balki ular yuzasidan real yechimlar bo'yicha fikr almashish uchun muhim platforma bo'lganini ta'kidlab, ana shunday ochiqlik va munozaralarda ko'tarilgan takliflar sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishini qayd etdi.

Muloqot yakunida advokatlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ular duch keladigan to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga kelishib olindi.

OCHIQLIK SIYOSATI SHAROITIDA ZAMONAVIY JURNALISTIKA VA OAV O'RNI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan "Ochiqlik siyosati sharoitida zamonaviy jurnalistika va ommaviy axborot vositalarining o'rni" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.

Deputatlar, davlat va nodavlat telekanallarida faoliyat yuritayotgan jurnalistlar hamda soha vakillari ishtirok etgan tadbirida ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, so'z va axborot erkinligini ta'minlash, davlat organlari faoliyatining ochiqchilik va shaffofligini yanada kuchaytirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz rahbarligida ommaviy axborot vositalari xodimlarining ish va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini rag'batlantirish, sohaning moddiy-texnik va kadrlar salohiyatini mustahkamlash bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli ishlar ham bu borada muhim qadam bo'ldi.

Davra suhbatida telejurnalistikaning so'z erkinligini ta'minlashda ayni kundagi holati, ochiqlik indeksida O'zbekistonning egallagan mavqei, sun'iy intellektning elektron OAV va zamonaviy jurnalistika rivojidagi ahamiyatiga oid ma'ruzalar tinglandi.

So'zga chiqqanlar mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligini, axborot olish va uni tarqatish huquqini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlariga alohida to'xtalib o'tdi. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarda jurnalistlarning kasbiy faoliyatini amalga oshirish, axborot olish, davlat organlari va tashkilotlardan jamoatchilik uchun ahamiyatli ma'lumotlarni so'rash va olish huquqlari mustahkamlab qo'yilgani qayd etildi.

Shuningdek, mazkur qonunlarga muvofiq, ochiqlik siyosati samaradorligini oshirish, davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashda OAVning o'rnini kuchaytirish, jurnalistlarning huquq

va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, aholini tekzor, xolis va ishonchli axborot bilan ta'minlashda zamonaviy media vositalarining ahamiyatini oshirishni yanada mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Munozaralar davomida ommaviy axborot vositalari xodimlari tomonidan amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan qator taklif va ishonchli axborot bilan ta'minlashda zamonaviy media vositalarining ahamiyatini oshirishni yanada mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

– Soha vakillari bilan ochiq muloqot shaklida, samimiy ruhda o'tgan mazkur tadbir, shubhasiz, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishda muhim muloqot maydoni bo'lib xizmat qiladi, – deydi qo'mita a'zosi Botirali Shodiyev. – Bildirilgan har bir amaliy taklif parlament faoliyatida alohida e'tiborga olinadi. Zero, ularning erkin va samarali faoliyat yuritishi, jurnalistlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ochiqlik va so'z erkinligini ta'minlash demokratik islohotlarning muhim tarkibiy qismidir.

Davra suhbatlari yakunlari bo'yicha ochiqlik siyosati samaradorligini oshirish, jurnalistlar huquqlarini ta'minlash va axborot sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadbir doirasida ishtirokchilar Oliy Majlis tarixi aks etgan muzey, qonunlar qabul qilinadigan katta majlislar zali bilan ham yaqindan tanishdi.

"Xalq so'zi".

ХОМАШЁДАН ТЕХНОЛОГИК МУСТАИЛЛИККАЧА: НОДИР МЕТАЛЛАР ИНҚИЛОБИ ВА ИЛМ-ФАН УЙҒУНЛИГИ

Bugungi sun'iy intellekt, "yashil" energetika va kosmik texnologiyalar asrida global bozorda texnologik metallar va nodir minerallarga talab geometrik progressiya tartibida oshib bormoqda. Elektrotexnika, mashinasozlik, aviatsiya, tibbiyot va harbiy sanoat kabi ilg'or sohalarning kelajagi aynan mana shu resurslarga bog'liq.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev huzurida sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini rivojlantirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bag'ishlangan taqdimotda shu haqda so'z bordi.

Nuqtai nazar

Sanoat suvereniteti yo'lidagi muhim qadam

O'zbekiston yer osti boyliklari va nodir metallar zaxirasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Biroq shu paytgacha ushbu ulkan salohiyat to'liq ishga solinmagan edi. Jumladan, O'zbekiston texnologik metallar kombinativ asosiy faoliyati uzoq yillar davomida faqatgina volfram va molibden ishlab chiqarish bilan cheklanib keldi. Taqdimotda ushbu konservativ yondashuvdan butunlay voz kechish, yangi konlarni faol o'zlashtirish, zamonaviy boyitish fabrikalari hamda yuqori texnologik gidro va pirometallurgiya zavodlarini qurish orqali mamlakatda 28 turdagi muhim minerallarni sanoat darajasida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha tarixiy vazifa qo'yildi.

Davlatimiz rahbariga taqdimot qilingan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan strategik reja o'z ko'lamiga ko'ra mamlakat iqtisodiy tarixidagi yirik loyihalardan biridir. Unga ko'ra, besh yil ichida umumiy qiymati 4,2 mlrd. dollarlik 120 ta investitsiyaviy loyihani amalga oshirish nazarda tutilgan. Ushbu investitsiyalar evaziga sohaning umumiy ishlab chiqarish hajmini 2028-yilgacha 1 mlrd. dollarga, 2030-yilga borib esa 2 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Bu ko'rsatkich sohaning makroiqtisodiy ahamiyatini bir necha barobar oshirib, O'zbekistonning eksport salohiyatini tubdan yaxshilaydi.

E'tiborlisi, ayni rejalar bo'yicha shu yilning o'zidayoq amaliy harakatlar boshlangan. Joriy yilda umumiy qiymati 166 mln. dollarlik 12 ta strategik loyiha ishga tushirildi. Buning natijasida iqtisodiyotda jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Xususan, O'zbekiston o'z tarixida ilk bor yuqori so'flikdagi selen, tellur va reniy kabi nodir metallarni mustaqil ravishda ishlab chiqarishni boshlaydi. Bu metallar yarimo'tkazgichlar, quyosh panellari va aviatsiya dvigatellari uchun zarur. Qolaversa, import o'rnini bosishga va kukun metallurgiyasiga e'tibor kuchaytiriladi. Kukun metallurgiyasi asosida avtomobilsozlik uchun 21 turdagi yuqori sifatli import o'rnini bosuvchi ehtiyot qismlar hamda kimyo sanoati uchun zarur bo'lgan sulfat kislotasi ishlab chiqarildi. Yangi quvvatlar hisobidan yuzlab yuqori maoshli, intellektual ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy byudjetlarga tushumlar ko'paydi va eksport imkoniyatlari keskin ortadi.

O'zbekistonning ushbu yangi strategiyasi xalqaro hamjamiyatning, xususan, AQSH ("S5+1" doirasidagi muhim minerallar bo'yicha muloqot) va Yevropa Ittifoqining mintaqaga qiziqishi yuqori nuqtaga chiqqan davrga to'g'ri keldi. G'arb davlatlari Xitoyning nodir metallar bozoridagi monopoliyasiga muqobil sifatida aynan Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonga katta umid bilan qaramoqda. 4,2 mlrd. dollarlik loyihalarning amalga oshirilishi va Jahon savdo tashkilotiga a'zolik arafasida turgan O'zbekistonning global qoidalariga moslashishi mamlakatni dunyodagi eng ishonchli hamda jozibador "yashil" va texnologik metallar yetkazib beruvchi markazga aylantiradi.

Muhim minerallar sohasida boshlangan ushbu islohotlar – Yangi O'zbekistonning sanoat suvereniteti va texnologik mustaqilligini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamdir. O'zbekiston endi shunchaki oddiy ruda va xomashyo eksport qiluvchi emas, balki yuqori qiymatga ega tayyor sanoat mahsulotlari va nodir metallar ishlab chiqaruvchi global iqtisodiy subyektaga aylanmoqda.

Yuqori texnologiyali, raqamlashgan yangi sanoat ekotizimi

O'zbekiston mineral resurslar salohiyati bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakat hududida 30 dan ortiq strategik muhim foydali qazilmalar zaxiralari mavjud. Xususan, oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda 4-o'rinda, qazib olish hajmiga ko'ra esa yetakchi o'ntalikka kiradi. Tabiiy uran zaxiralari bo'yicha 12-o'rinda, uni qazib chiqarish va eksport qilishda esa kuchli beshlikdan joy olgan. Tasdiqlangan mis zaxiralari bo'yicha 11-o'rinda turadi. Kaliy tuzlari borasida esa 4-o'rinni egallaydi. Nodir metallar, ya'ni molibden, litiy, kadmiy va nodir yer elementlari global "yashil" energetika bozorida mamlakatning strategik ahamiyatini oshirmoqda. So'nggi yillarda geologiya-qidiruv ishlariga jalb etilgan investitsiyalar natijasida 1650 dan ortiq yangi konlar ochildi. Mineral resurslar instituti ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat hududi atigi 40 foizgacha batasil o'rganilgan, demak, ulkan yashirin salohiyat mavjud.

Davlatimiz rahbariga taqdimot qilingan 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategik reja o'z ko'lamiga ko'ra mamlakat iqtisodiy tarixidagi yirik loyihalardan biridir. Unga ko'ra, besh yil ichida umumiy qiymati 4,2 mlrd. dollarlik 120 ta investitsiyaviy loyihani amalga oshirish nazarda tutilgan. Ushbu investitsiyalar evaziga sohaning umumiy ishlab chiqarish hajmini 2028-yilgacha 1 mlrd. dollarga, 2030-yilga borib esa 2 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Global geosiyosiy va texnologik kurashlar yangi bosqichga chiqqan bugungi davrda qaysi davlat faqatgina xomashyo sotish bilan cheklansa, u jahon iqtisodiyotining chekkasida qolib ketishi muqarrar. Zamonaviy dunyoda haqiqiy suverenitet va iqtisodiy qudrat "xomashyo – qayta ishlash – tayyor mahsulot" zanjirini nechog'li mukammal qurish bilan belgilanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev huzurida o'tkazilgan sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini rivojlantirish taqdimoti O'zbekistonning global qiymat yaratish zanjiridagi o'rnini tubdan o'zgartiruvchi tarixiy islohotlar bosqichini boshlab berdi. Bu strategiya yuqori texnologiyali, raqamlashgan va ilmfanga asoslangan mullaqo yangi sanoat ekotizimini yaratish yo'lidir.

Uzoq yillar davomida O'zbekistonning volfram va molibden kabi strategik metallar bo'yicha faoliyati faqatgina yarimtayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni xorijga arzon bahoda sotish bilan cheklangan edi. Yangi davr talabi esa ushbu eski yondashuvni butunlay rad etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan asosiy vazifa – volfram va molibden bo'yicha "xomashyo – qayta ishlash – tayyor mahsulot" to'liq zanjirini yaratishdir. Bundan buyon O'zbekiston jahon bozoriga faqatgina xomashyo emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega noyob metall kukunlari, o'ta mustahkam qotishmalar va sterjenlar, yuqori aniqlikdagi simlar va mikroelektronika detallari, sanoat va mashinasozlik uchun tayyor qismlarni yetkazib beradi. Xomashyo narxidan bir necha barobar qimmatroq bo'lgan tayyor mahsulotlar eksporti orqali esa milliardlab dollar daromad olish imkoni paydo bo'ladi.

Ushbu strategik maqsadlarni hayotga tatbiq etish uchun Chirchiq shahrida mullaqo yangi ilmiy-ishlab chiqarish klasteri yaratilmoqda. Shaharda "Kelajak metallari" texnoparki va "R&D" (Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik) markazi tashkil etiladi. Bu yerda ilm bilan ishlab chiqarish o'rtasida ko'priq quriladi. Masalan, ilmiy ishlanmalar tijoratlashtiriladi va startaplar

faol qo'llab-quvvatlanadi. Ya'ni texnopark va uning rezidentlariga yer uchastkalari hamda infratuzilmadan foydalanish bo'yicha misli ko'rilmagan imtiyozlar beriladi. Yosh olimlar va muhandislarining loyihalari ni moliyalashtirish uchun

maxsus startap dasturlari ishga tushiriladi. Yana bir inqilobiy qadam – Chirchiqda Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan nodir va muhim minerallar bo'yicha ilmiy-tadqiqot va texnologik markaz hamda zamonaviy nanotahlil laboratoriyasi tashkil etilmoqda. Laboratoriya to'liq quvvat bilan ishlay boshlagach, bir kunda 1 mingtagacha geologik namunani yuqori aniqlikda tahlil qila oladi. Shu paytgacha xorijga yuborilgan tahlillar mahalliyashtirilib, 6,5 mln. dollarlik import xizmatlari tejiladi. Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga xizmat ko'rsatish orqali yiliga 4 mln. dollarlik xizmatlar eksporti yo'lga qo'yiladi.

Bugungi metallurgiya va geologiya – bu yuqori aniqlikdagi algoritmlar va raqamli tizimlar yo'nalishi. Shu bois sohada raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Endilikda geologiya-qidiruv ishlari eski usullarda emas, balki eng zamonaviy texnologiyalar asosida olib boriladi. Yer osti konlarining uch o'lchamli raqamli modellari yaratilib, sun'iy intellekt yordamida metallarning joylashuvi va zaxiralari aniq prognoz qilinadi. Barcha geologik ma'lumotlar va xaritalar bitta

xavfsiz raqamli platformaga jamlanadi. Kon qazishdan tortib, tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan barcha jarayonlar raqamli datchiklar va tizimlar orqali onlayn nazoratga olinadi. E'tiborlisi, loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan o'zgartirilmoqda.

Toshkent davlat texnika universiteti va Texnologik metallar kombinati o'rtasida dual ta'lim tizimi yo'lga qo'yildi. Bu tizim doirasida kombinativ o'zida metallurgiya va materialshunoslik bo'yicha TDTuning 2 ta maxsus kafedrasini ochildi. Talabalar auditoriyada o'qigan nazariyasini o'sha kunning o'zida zavodda, amaliyotda sinab ko'radi. Hozirning o'zida 64 nafar iqtidorli talaba korxonada bevosita amaliyot o'tamoqda. Davlatimiz rahbari ushbu dual ta'lim qamrovini yanada kengaytirish, o'quv dasturlarini 4,2 mlrd. dollarlik yangi loyihalar ehtiyojlariga moslashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Bu kelajakda O'zbekistonning muhandislik va ilmiy elitasini shakllantirish poydevori bo'ladi.

Modernizatsiya dasturi – mamlakat taraqqiyotiga daxldor masala

Yana bir muhohaza. Dunyo iqtisodiyoti sun'iy intellekt va "yashil" texnologiyalar asriga o'tar ekan, global bozorda xomashyo va nodir metallar uchun kurash yangi, misli ko'rilmagan bosqichga kirdi. Bugun sanoat qudrati faqatgina yer ostida qancha boylik borligi bilan emas, balki ularni qazib olish va qayta ishlashda qanday texnologiyalardan foydalanilayotgani

Kelajak ilm hamda texnologiyaga tayangan davlatlarni va O'zbekiston allaqachon u tomon dadil qadam tashladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlanganidek, muhim va texnologik minerallar sohasi bu shunchaki konchilik emas. Bu – milliy iqtisodiyotning texnologik mustaqilligini ta'minlovchi, yuqori qo'shilgan qiymatli yangi sanoat tarmoqlarini yaratuvchi va mamlakat yoshlari uchun yuqori daromadli intellektual ish o'rinlarini kafolatlovchi strategik sohadir. Shu ma'noda, ushbu modernizatsiya dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yaqin yillarda O'zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun dunyoning eng qudratli va ilg'or texnologik-metallurgiya davlatlaridan biriga aylantiradi.

G'ofurjon MUHAMEDOV,
O'zbekiston Respublikasi fan arbobi.

SOG'LOM JAMIYAT VA BARQAROR KELAJAK GAROVI

Huquqni muhofaza qilish akademiyasida 26-iyun – Xalqaro g'iyohvandlikka qarshi kurash kuni munosabati bilan "G'iyohvandlikka qarshi kurashda yoshlar tashabbusi: sog'lom jamiyat – barqaror kelajak garovi" mavzuida respublika ilmiy-Anjuman

Davlat organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar vakillari, faol yoshlar qatnashgan ushbu tadbirida qayd etilganidek, g'iyohvandlik va noqonuniy narkotik moddalar muomalasi nafaqat alohida shaxs, balki

jamiyat taraqqiyoti, millat salomatligi hamda mamlakat xavfsizligiga tahdid solayotgan dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, sintetik narkotik vositalarning internet tarmoqlari orqali tarqalishi yoshlar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Anjumanda yurtimizda g'iyohvandlikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, narkotik va psixotrop vositalar, shuningdek, kuchli ta'sir etuvchi moddalar noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan yangi qonunchilik normalarining ahamiyati haqida so'z yuritildi. Jumladan, shu yil 11-iyunda qabul qilingan tegishli qonun bilan Jinoyat kodeksiga "Aholi salomatligi va genofondiga qarshi

jinoiyatlar" nomli yangi bob kiritildi. Noqonuniy narkolaboratoriyalar tashkil etish, narkotiklar savdosini boshqarish, bangixonalar ochish kabi harakatlar uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti hamda Huquqni muhofaza

qilish akademiyasi o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumi imzolandi.

Mazkur memorandum yoshlar o'rtasida g'iyohvandlikka qarshi profilaktika ishlarini yangi bosqichga olib chiqish, hududlarda tizimli targ'ibot tadbirlarini tashkil etish, yoshlarning antinarkotik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, huquqiy savodxonlikni oshirish hamda sog'lom turmush tarzini keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

"Xalq so'zi".

Mamlakatimizning Frankfurt-Mayndagi Bosh konsulkonasi ko'magida xorijdagi o'zbekistonliklar o'rtasida aloqalarni mustahkamlash maqsadida

"Do'ppi" vatandoshlar uyushmasi tashkil etildi.



DO'STLIK VA HAMJIHATLIK SADOLARI



Mazkur har ikki tadbirida Sharq maqomoti an'analarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish, maqom, mug'om, dastgoh va muqom kabi kasbiy musiqa tizimlari o'rtasidagi tarixiy, nazariy hamda ijtirochilik aloqalarini tahlil qilish masalalari muhokama etildi.

Bugun Namangan ko'chalarida turli tillarda so'zlashayotgan insonlarni uchratish mumkin. Ammo ularning barchasini birlashtirib turgan yagona til bor. Bu – san'at tili. Bu yerda o'tayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumanida xalqaro tashkilotlar rahbarlari, vazirlar, madaniyat arboblari, musiqashunoslar va taniqli ijodkorlar qatnashmoqda. Ular uchun ushbu forum Sharq musiqiy tafakkurining boy xazinasini yaqindan his etish imkoniyatini berayotir. San'at anjumani doirasida "Sharq maqomotining yangi tendensiyalari: an'ana va innovatsiyalar uyg'unligi" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda "Madaniyatlararo muloqot – tinchlik, o'zaro ishonch va barqarorlik omili" mavzuida SHHTga a'zo davlatlarning forumi ham bo'lib o'tdi.

Konferensiya doirasida xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirokida hamkorlik memorandumlari imzolani, birgalikda maqom san'atini o'rganish, ta'lim jarayoniga tatbiq etish va xalqaro ilmiy aloqalarni kengaytirishga kelishib olindi. Tadbir doirasida Yunus Rajabiy

nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti va S. A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinemato-grafiya institutining Toshkent filiali hamkorligida "Rajabiy kodi: maqomning raqamli xotirasi" nomli qisqa metrajli film tayyorlanmoqda. Shuningdek, Koreya Respublikasi musiqa terapiyasi



assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda maqom san'atining inson ruhiyati va madaniy terapiyadagi ahamiyatini o'rganish bo'yicha istiqbolli loyihalar muhokama qilindi. Quyida anjumanda ishtirok

etgan xorijlik mehmonlarning milliy musiqa merosini asrash, uni ilmiy asosda o'rganish, yosh avlodga yetkazish va xalqaro miqyosda targ'ib qilishga qaratilgan fikr-mulohazalarini yozib oldik.

So'z – tadbir ishtirokchilariga

Sulton RAYEV,
Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY bosh kotibi:



– Maqom o'zbek milliy madaniyatining noyob va betakror hodisalaridan biridir. U xalqning ma'naviy boyligi, milliy san'atning yuksak namunasidir. Davlatimiz rahbarining yuksak e'tibori va qo'llab-quvvatlashi tufayli maqom lazgi, askiya, baxshichilik kabi milliy san'at turlari qatori yanada rivojlanmoqda. Bir vaqtlar unutilib ketish xavfi bo'lgan ko'plab madaniy meros namunalari qayta tiklandi va yangi hayot kasb etdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan madaniyat sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganidan xabarimiz bor. Jumladan, Xalqaro maqom san'ati anjumanining muntazam o'tkazilayotgani milliy madaniyat taraqqiyotida yangi sahifa ochmoqda. Shu orqali O'zbekiston nafaqat o'z milliy merosini asrab-avaylamogda, balki jahon sivilizatsiyasiga ham munosib hissa qo'shyapti.

Serdar CHAM,
Turkiya Respublikasining madaniyat va turizm vaziri o'rinbosari:



– Bunday anjumanlar kelajak avlod uchun juda muhim va foydali. Ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilari butun dunyoga muhim bir murojaat yo'lladi. Xususan, dunyo xalqlarining maqom, mug'om, makam, dastgoh kabi mumtoz musiqa namunalari haqidagi ma'lumotlarni yagona raqamli

makonga ko'chirish vaqti kelganini aytib, maqom san'ati olimlari va ijodkorlarini Jahon maqom antologiyasini yaratishga chaqirdi.

Darhaqiqat, ushbu madaniy merosni asrab-avaylash zarur. Maqom san'ati juda ulkan madaniy meros bo'lib, bugungi kunda uning qadr-qimmatini dunyo tomonidan tobora chuqurroq anglanmoqda. Sharqdan ham, G'arbdan ham ko'plab insonlar bu merosga qiziqish bildirmoqda.

Yana bir haqiqatni unutmashlik kerakki, madaniyat, musiqa, san'at va ilm-fan sohalari qat'iy ravishda Sharq va G'arbga bo'lib bo'lmaydi. Ular xalqaro va umuminsoniy boyligidir. Ular doimo o'zaro ta'sirda bo'ladi, bir hududdan boshqasiga o'tadi, rivojlanadi va boyiydi.

Shuni ham biz yaxshi bilamizki, bu buyuk madaniy va ilmiy an'analarning ko'pchiligi aynan shu zamindan unib chiqqan va taraqqiy etgan. Men turk xalqi vakili sifatida ildizlarimizning shu zamin bilan bog'liqligidan faxrlanaman. Ushbu merosni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish mas'uliyatini ham his qilaman.

Berati EMINI,
shveysariyalik musiqa va san'at eksperti:

– Anjumanga TURKSOY tashkiloti tomonidan taklif qilinganidan mamnunman. O'zbekiston maqom san'ati va uning atrofidagi madaniy muhit meni nihoyatda hayratlantirdi. Bu yirik tadbirida qatnashish barobarida u haqida yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ldim. Maqomning o'zi va uning ortida turgan san'at haqidagi qarashim shuki, bu – juda go'zal san'at. U insonga xotirjamlik baxsh etadi, qalbgga osoyishtalik beradi.

Shuningdek, turli mamlakatlar o'rtasida bog'lanish va yaqinlashishning o'ziga xos vositasidir. Masalan, men

Yevropadanman, bizda O'zbekiston bilan to'g'ridan-to'g'ri tarixiy aloqalar bo'lmagan. Ammo O'zbekiston musiqasi haqida birinchi marta eshitganimdayoq o'z madaniyatimiz, musiqiy merosimiz bilan ma'lum o'xshashliklarni sezganman. Ayniqsa, musiqa asboblari. Albatta, ular aynan bir xil emas, ammo tashqi ko'rinishi va ayrim xususiyatlari jihatidan mustaraklik bor.

Qo'shiqlar ham ma'lum ma'noda bir-biriga o'xshaydi. Ular bir xil emas, lekin diqqat bilan tinglasangiz, o'zaro uyg'unliklarni yaqqol his qilish mumkin. Muhimi, har ikki san'atning vazifasi bir xil: insonlarga ezigulik ulashish.

Akif MA'RIFLI,
O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi O'zbekiston madaniyat markazi direktori:

– O'zbekiston maqomlari o'zbek maqomlari turkiy xalqlarning mustarak ma'naviy qadriyatlarini hisoblanadi. Xalqlarimiz ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelayotgan ana shu merosdan ma'nadan oziqlangan, qalbi va ruhini tarbiyalagan.

Yurtimizda o'tkazilishi an'anaga aylangan mazkur nufuzli anjuman turk dunyosidagi umumiy qadriyatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta jonlantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani bilan ham qadrlir.

Hozirgi globallashuv davrida ezuq tushunchalarni, qadriyatlarini yosh avlod ongushuurgasingdirish nihoyatda dolzarb. Biz Xalqaro maqom san'ati anjumani kabi tadbirlar vositasida ming yillik tarixga ega madaniyatimizni kelajak avlodlarga meros qilib qoldiramiz. Ishonamanki, bu an'ana izchil davom etaveradi.

Ulug'bek RO'ZIMATOV
("Xalq so'zi").

HAQIQATNING OVOZI

Jurnalist voqealarni bayon qilish bilan birga ularni tahlil etuvchi, jamiyatning dardini tinglovchi va xalqning orzu-intilishlarini ifodalovchi, joiz bo'lsa, haqiqat uchun kurashuvchi shaxs. Shu bois jurnalistika oddiy kasb emas, balki ulkan mas'uliyat, fidoyilik va qalban bedorlik talab qiladigan hayot maktabidir.

Biz quyida fikrlarini taqdim etayotgan yurtodoshlarimiz va xorijliklar shu kasbga umrini bag'ishlagan, hayoti mazmunini aynan shu sohada ko'rgan insonlardir.

27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

Qahramon SOBUROV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, Xorazm viloyati teleradiokanal muharriri:

– Menimcha, odamga hayotidan ma'no-mazmun topishi, saodatga erishishi, muvaffaqiyat eshiklarini ochishi uchun ko'p narsa kerak emas. Agar kishi o'zi istagan joyda, yaxshi ko'rgan kasbda, dunyoqarashi yaqin odamlar bilan ishlayotgan bo'lsa, bundan ortiq baxt bormikan?!

Mana, 30-yildan oshdiki, aziz eldoshlarim sevib tomosha qiladigan Xorazm viloyati teleradiokanalida faoliyat yuritmoqdaman. O'tgan yillar mobaynida jurnalistik kasbga sadoqat va mehr bilan yondashib, samarali ishladim, deb ayta olaman. Chunki zahmatlar evaziga tayyorlangan har bir teledasturimni xalqimiz yaxshi kutib oldi. Ba'zan ko'cha-ko'ya odamlarning "Ko'rsatuvingizni ko'rdik, dim ajoyib chiqibdi!" deb aytgan so'zlari shu kasbni bejiz tanlamaganimga yanada ishonch va kuch-g'ayrat bag'ishlaydi.

Bugun axborot tezkorlik bilan tarqalayotgan bir davrda jurnalistdan nafaqat shiddat, balki haqiqatga sadoqat ham talab etiladi. Chunki haqiqiy jurnalist har qanday sharoitda

Turol TURON,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi:

– Jurnalistlarni jamiyatga haqiqat nafasini ulashuvchi shaxs deysishlari bejiz emas. Aynan ularning bir qadar mashaqqatli va sharaflari mehnatlari evaziga jamiyatdagi qarama-qarshiliklar yechim topadi, qilinayotgan ezuq ishlar adolat pallasida tosh bosadi.

Agar insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, har bir davrning o'z ovozi, o'z guvohi bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu ba'zan tarixchi, ba'zan yozuvchi, ba'zan esa jurnalist bo'lgan.

Fikrimcha, axborotlar oqimi jadallashgan zamonamiz shohidi aynan kasbdoshlarimizdir. Bugun ularning oldida katta vazifa turibdi, bu mushkul va sharaflar savorov vazifa – oqni oq, qorani qora deya olishdan iborat. Mazkur soha vakillari qachonlardir to'siqlarga uchragan, erkinlikni faqat va faqat orzu qilgani ham bor gap. O'sha zamonlarni eslab mashhur adib Alber Kamyuning "Erkin matbuot yaxshi ham, yomon ham bo'lishi mumkin, ammo erksiz matbuot faqat yomon bo'ladi" degan hikmatli so'zlari yodga tushadi.

Ushbu fikrning o'ziyoq jurnalistikaning



xalq ishonchini saqlashni o'zining eng muhim vazifasi deb biladi. Men uchun yana bir muhim jihat – yosh jurnalistlarga tajriba ulashish. Chunki sohamizning ertangi kuni ana shu bilim va fidoyi yoshlar qo'lida.


Ular milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy jurnalistikani rivojlantirishlariga ishonaman. Yurtimizda irod qilish, yangi g'oyalarni amalga oshirish va xalq xizmatida bo'lish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Biz, jurnalistlar esa ana shu imkoniyatlarni xalq manfaati yo'lida safarbar qilib, Vatanimiz taraqqiyoti, yurtodoshlarimiz yutuqlari va hayotimizdagi ezuq o'zgarishlarni keng yoritishda davom etamiz. Zero, jurnalist uchun eng katta sharaflar xalq ishonchiga munosib bo'lib yashashdir.



Shu ma'noda, jurnalistlari e'zozlangan yurtda istiqbolga, farovon hayot va baxtli kelajakka insonlarning ishonchi mustahkam bo'ladi. Men bundan bir necha yillar oldin O'zbekistonda bo'lganida kasbdoshlar bilan kechgan suhbatlar va qardoshlarimizning jurnalistika sohasidagi o'zgarishlarni ko'rib juda hayratlandim. Ayniqsa, yosh jurnalistlarga yaratilgan imkoniyatlar e'tiborga molik.

Fursatdan foydalanib, ayni kunlarda kasb bayrami nishonlanayotgan o'zbekistonlik kasbdoshlarimizni chin dildan qutlayman va sihat-salomatlik tilayman!

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi") yozib oldi.



O'ZBEKISTON SAYYOHLARNI CHORLAMOQDA

Geyb Kastro-Rut O'zbekistonga sayohati davomida bu kabi kutilmagan va ajabtovur voqealarga bir necha bor guvoh bo'lganini yozadi. Ko'plab yosh sayyohlar singari u turistlik qoliqlar kamroq, tasodifiy sarguzashtlar ko'proq bo'lgan yo'nalishni xohlagani uchun O'zbekistonni tanlagan. Muallifning fikricha, aynan shu jihatlar O'zbekiston va Markaziy Osiyoga qiziqish oshishining asosiy sabablaridan biri.

Ta'kidlanishicha, keyingi yillarda mamlakatimiz o'zining xalqaro maydondagi qiyofasini yaratish borasidagi ishlarni sezilarli darajada faollashtirdi. O'zbekiston xorijliklarga 2016-yilda ochildi va shu yildan hukumat mamlakatni tashqi bozorlarda namoyish eta boshladi, bloggerlar va sayohatchi mualliflarni taklif qilish, mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirish, kirish qoidalarini soddalashtirish ishlariga e'tibor qaratildi. Maqolada shunday ma'lumotlar keltiriladi: 2025-yilda O'zbekiston 11,7 million nafar

xorijiy sayyohni qabul qildi. Bu esa 2019-yildagiga nisbatan qariyb ikki barobar ko'p. Jurnalist ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekiston haqidagi hayratga to'la chiqishlar ko'payganidan keyin barchasini o'z ko'zi bilan ko'rish istagi

“ 2025-yilda O'zbekiston 11,7 million nafar xorijiy sayyohni qabul qildi. Bu esa 2019-yildagiga nisbatan qariyb ikki barobar ko'p. ”

tug'ilganini ta'kidlaydi. Bu zaminga u zamonaviy megapolis va tarixiy merosni o'zida mujassam etgan Toshkent shahriga uchgan to'g'ridan-to'g'ri naoyo bilan kelgan. Muallif Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida bo'lib o'tgan balet kechasi hamda Toshkent metrosi unda yaqin o'tmish yodgorliklari sifatida unutilmas taassurot qoldirganini yozadi.

Sayyoh to'xtab o'tgan yana bir manzil – Chorsu bozori. Bu joy turli shirinliklar, yong'oqlar va quritilgan mevalar sotiladigan shovqin-suroni, gavjum maydon sifatida tasvirlangan. Muallif bu yerdagi holatni Istanbul va Quddusdagi eng yaxshi bozorlar bilan qiyoslar ekan,

aynan shu nuqtada shahar hayoti oqimini, mamlakat energiyasini his qilish mumkinligini ta'kidlaydi.

Poytaxtdan Samarqandga yo'l olgan jurnalist bu qadimiy shahardagi san'at va me'morchilikning o'zaro uyg'unligidan hayratga tushganini aytadi. Uning yuragi – keng maydon uzra yuksalib turgan uch mahobatli madrasadan iborat Registon. Yonidagi

Shohi Zinda maqbarasiga esa odamlar tinchgina ibodat qilish uchun kelishadi. Muallif, ayniqsa, Samarqandning ko'p qatlamli ekaniga e'tibor qaratadi – mahobatli islom me'morchiligi, diniy xotira va turistlik jozibadorlik bir vaqtning o'zida, uyg'un holatda ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi.

Samarqanddagi mehmonxonada muallif yana bir bor O'zbekistonning naqadar tez o'zgarayotganidan hayratlanadi. Uning qo'shnilari tayvanlik, germaniyalik va shveysariyalik sayyohlar edi, shuningdek, bu yerda xorijlik ayollar ham ko'pchilikni tashkil etardi. Muallifning fikricha, O'zbekiston endi tajribali sayyohlarga keladigan mamlakat emas, u har qanday turist uchun ham ochiq va tushunarli mamlakatga aylangan.

Jurnalist Buxoro haqida alohida to'xtalib, bu shaharni zamonlar silsilasi ufurib turgan maskan sifatida tasvirlaydi. U maqbaralar, madrasalar va ko'hna binolardan hayratlanadi, chinakam hunarmandchilik muhitini his etadi.

Xiva mavzusiga qaytar ekan, muallif aynan shu yerda O'zbekistonga turistlik oqim qanchalik o'sganligi ko'zga yaqqol tashlanishini yozadi. May oyida tezkor temir yo'l qatnovining ishga tushirilishi Toshkentdan bu shaharga kelish uchun sarflanadigan vaqtni keskin qisqartirdi – endi u 14 emas, 8 soatni tashkil etadi. Yangi mehmonxonalar, hatto devor bilan o'rangan qo'rg'on – Ichan qal'a ichida ham bunyod etilmoqda. Xiva evrilishlar ostonasida turgan shaharni eslatadi.

Muallif bu jarayonning boshqa jihatiga ham e'tibor qaratadi. Uning fikricha, ko'plab mashhur turistlik maskanlarda bo'lgani kabi qiziqishning ortishi tufayli Xiva shahrining bir qismi shunchaki bezakka aylanib qolishi mumkin. Shu bilan bir qatorda ko'zga yaqqol tashlanib turgan obidalaridan tashqari shaharning bir-birini to'sib turgan yashirin qatamlari – turli davrlar, madaniyatlar va istilolar izini ham ko'radi. "Xiva tarixi, – deb yozadi Geyb Kastro-Rut, – aksariyat hollarda turli kuchlarning o'zaro to'qnashuvlari ostida kechdi, endi esa bu shahar butun O'zbekistonda bo'lganidek, sayyohlarni o'ziga rom etmoqda".

Ruslan KENJAYEV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

2026-yil 1-sentabrdan byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va stipendiyalar miqdori 7 foizga oshiriladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 629. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhili S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.15 Topshirildi – 00.20

1 2 3 4 5 6